

DAVLAT BYUDJETINING MOHIYATI VA AHAMIYATI

Baxtiyarov Javohir Baxtiyarovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

1-kurs MSc Moliya (kunduzgi) Magistranti

javohirbaxtiyarovich@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14734830>

Annotatsiya. Mazkur tezisda davlat byudjetining mohiyati, funksiyalari va O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rni batafsil tahlil qilingan. Davlat byudjeti daromad va xarajatlari, ularning tarkibi va ulushlari jadvallar bilan yoritilgan. Shuningdek, iqtisodiy tahlillar va olimlarning fikrlari asosida davlat byudjetining ta'minot, taqsimlash va nazorat funksiyalarining ahamiyati tushuntirilgan. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining 2023-yilgi ko'rsatkichlari asosida mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish yo'llari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat byudjeti, byudjet daromadlari, byudjet xarajatlari, taqsimlash funksiyasi, moliyaviy nazorat, ijtimoiy himoya, soliq tizimi.

Davlat byudjeti – bu davlatning moliyaviy faoliyatini boshqarish va rejalashtirishda asosiy hujjat bo'lib, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Byudjet orqali davlat o'z daromadlari va xarajatlarini nazorat qiladi, ijtimoiy tenglikni ta'minlaydi va iqtisodiy barqarorlikni saqlashga intiladi.

O'zbekiston uchun davlat byudjeti davlat siyosati samaradorligini ko'rsatib beruvchi o'lchovdir. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng byudjet siyosati doimiy ravishda isloh qilinib kelmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, aholi turmush darajasini oshirish va korrupsiyaga qarshi kurash kabi masalalarga alohida e'tibor berilmoqda.

Ta'minot funksiyasi. Ta'minot funksiyasi davlatning asosiy vazifalarini bajarish uchun moliyaviy mablag'larni taqdim etish bilan bog'liq. Davlat fuqarolarga ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va huquq-tartibot kabi xizmatlarni taqdim etish uchun mablag' ajratadi.

O'zbekistonda 2023-yil davlat byudjeti xarajatlarining katta qismi - 137,25 trillion so'm ijtimoiy xarajatlarga yo'naltirilgan:

- **Ta'lim sohasi uchun** – 61,22 trillion so'm (umumiy xarajatlarning 21,77 %).
- **Sog'liqni saqlash uchun** – 31,07 trillion so'm (11,05%).
- **Nafaqalar, moddiy yordam va kompensatsiya to'lovlari** - 19,21 trillion so'm (6,83 %).

Taqsimlash funksiyasi. Taqsimlash funksiyasi iqtisodiy resurslarni davlat tomonidan qayta taqsimlashni anglatadi.

Bu orqali daromadlar tengsizligi kamaytirilib, ijtimoiy adolat ta'minlanadi. Davlat soliq va transfer to'lovlari orqali boy va kambag'al qatlamlar o'rtasidagi farqni qisqartirishga harakat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi 2023-yilda ijtimoiy himoyaga (nafaqalar, moddiy yordam va kompensatsiya to'lovlari, aholi bandligi darajasini oshirish, pensiya jamg'armasiga transfertlar, uy-joylar qurish dasturida qatnashayotgan banklar uchun kredit liniyalari, subsidiya va kompensatsiya to'lovlari) 35,8 trillion so'm mablag' ajratgan bo'lib, bu aholining zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirilmoqda. Pensiya va nafaqalar orqali aholining keksa va nogiron qatlamlari ijtimoiy jihatdan himoya qilinmoqda.

Nazorat funksiyasi. Nazorat funksiyasi davlat mablag'larining qonuniy va samarali ishlatilishini ta'minlashni nazarda tutadi. Bu orqali davlat mablag'lari noto'g'ri ishlatilishi va korrupsiyaga qarshi kurash olib boriladi. O'zbekistonda moliyaviy nazoratni "Hisob palatasi" amalga oshiradi.

Transparency International - tashkilotining 2023-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston korrupsiyaga qarshi kurashda sezilarli yutuqlarga erishmoqda ya'ni yildan-yilga O'zbekistonning reytingi ko'tarilib borishini kuzatishimiz mumkin.¹ Elektron hukumat tizimlari va raqamlashtirish jarayonlari orqali davlat xarajatlarining shaffofligi ta'minlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida davlat byudjeti tuzilmasi:

Byudjet daromadlari

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromadlari quyidagi manbalardan shakllanadi (1-jadvalga qarang):

- **Bevosita soliqlar** – davlat daromadlarining asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. 2023-yilda bevosita soliq tushumlari 73,1 trillion so'mni tashkil etgan.

- **Bilvosita soliqlar** – davlat daromadlarining asosiy qismi hisoblanadi.

2023-yilda ushbu soliqlardan kelib tushgan tushum jami 83,3 trillion so'mni tashkil etgan.

Eng ko'p kelib tushgan tushumlar aynan bilvosita soliq tushumlariga to'g'ri keladi.

- **Resurs to'lovlari va mulk solig'i** – davlat byudjeti daromadlarining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u davlatga tegishli yoki undan foydalanilayotgan tabiiy resurslar, yer va boshqa mulklar uchun to'lanadigan soliqlarni o'z ichiga oladi. 2023-yilda ushbu soliqlardan kelib tushgan tushum qariyb 28,08 trillion so'mni tashkil etgan.

- **Boshqa daromadlarlar** – 2023-yil holatiga ko'ra boshqa daromadlar 47,21 trillion so'mni tashkil qilgan.

¹ <https://www.transparency.org/en/cpi/2023/index/uzb>

1-jadval

Davlat byudjeti daromadlari 2023²

Ko'rsatkichlar		2023 yil			
		1-chorak	6 oylik	9 oylik	yillik
I. Daromadlar		47 288,6	102 296,3	162 904,1	231 721,3
1.	Bevosita soliqlar	16 699,9	33 582,2	51 541,7	73 103,6
1.1	Foyda solig'i	9 521,2	18 084,5	28 255,9	40 778,9
1.2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	6 622,4	14 361,9	21 553,2	29 917,4
1.3	Aylanmadan olinadigan soliq	556,4	1 135,7	1 732,5	2 407,3
2.	Bilvosita soliqlar	18 425,1	36 901,6	57 448,3	83 325,8
2.1	Qo'shilgan qiymat solig'i	13 218,3	25 844,8	39 854,4	57 885,3
2.2	Aksiz solig'i	3 486,1	7 000,8	10 907,7	15 834,4
2.3	Bojxona boji	1 720,6	4 055,9	6 686,2	9 606,1
3.	Resurs to'lovlari va mulk solig'i	6 491,0	13 057,0	19 834,3	28 079,5
3.1	Mol-mulk solig'i	1 316,2	2 562,4	3 683,8	5 097,7
3.2	Yer solig'i	1 425,1	3 066,4	4 674,7	6 890,1
3.3	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	3 543,8	7 076,6	10 960,2	15 300,3
3.4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	205,8	351,6	515,7	791,4
4	Boshqa daromadlar	5 672,6	18 755,5	34 079,9	47 212,5

Byudjet xarajatlari

O'zbekiston davlat byudjeti xarajatlari 2023-yilda quyidagi asosiy yo'nalishlarga yo'naltirilgan (2-jadvalga qarang):

- **Ijtimoiy xarajatlar** – 137,25 trillion so'm (xarajatlarning 48,8%)
- **Iqtisodiyot xarajatlari** – 42,9 trillion so'm (15,27%)
- **Investitsiya xarajatlarini moliyalashtirish** – 29,58 trillion so'm (10,52%)
- **Davlat boshqaruvi, adliya va prokuratura organlarini saqlash xarajatlari** – 14,6 trillion so'm (5,2%)

² <https://www.imv.uz/static/davlat-budjeti-daromadlari-2023>

2-jadval
Davlat byudjeti xarajatlari 2023³

Ko'rsatkichlar		2023 yil			
		1-chorak	6 oylik	9 oylik	yillik
II. XARAJATLAR (MAQSADLI JAMG'ARMALARSIZ) - JAMI		59 033,9	129 101,4	201 274,3	281 097,4
1.	Ijtimoiy xarajatlar	28 241,5	64 419,3	98 493,4	137 246,8
1.1	Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari	26 369,2	58 086,6	87 205,5	122 348,7
	shundan:				
1.1.1	ta'lim	13 039,5	30 091,4	42 894,2	61 220,3
a.	maktabgacha ta'lim	2 544,8	5 222,5	8 346,9	11 723,0
6.	umumiy ta'lim	8 565,9	20 888,9	27 927,8	39 682,6
b.	kadrlar tayyorlash	1 928,8	3 979,9	6 619,6	9 814,7
1.1.2	sog'liqni saqlash	6 680,2	14 618,1	22 689,5	31 066,6
1.1.3	madaniyat va sport	951,4	2 279,5	3 784,9	5 330,2
1.1.4	fan	358,3	751,0	1 167,8	1 774,1
1.1.5	nafaqalar, moddiy yordam va kompensatsiya to'lovlari	4 597,7	9 354,4	14 237,6	19 209,7
1.1.6	aholi bandligi darajasini oshirish	50,8	246,3	1 225,1	1 709,2
1.2.	Pensiya jamg'armasiga transfertlar	1 725,0	5 970,0	10 520,0	13 797,5
1.3.	Uy-joylar qurish dasturida qatnashayotgan banklar uchun kredit liniyalari, subsidiya va kompensatsiya to'lovlari	147,3	362,6	767,9	1 100,7
2.	Iqtisodiyot xarajatlari	11 318,3	20 095,6	30 068,1	42 926,9
	shundan:				
2.1	suv xo'jaligi ekspluatatsiyasi xarajatlari	1 413,7	4 484,5	7 062,4	8 672,4
2.2	sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	34,9	91,5	271,9	447,0
2.3	aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish	809,8	1 937,1	3 486,3	4 739,5
2.4	tabiatni muhofaza qilish	71,3	103,7	147,5	194,3
2.5	uy-joy kommunal ishlari	552,3	1 036,9	1 479,2	2 208,0
3.	Investitsiya xarajatlarini moliyalashtirish	2 805,0	12 031,4	21 741,3	29 581,6
4.	Davlat boshqaruvi, adliya va prokuratura organlarini saqlash xarajatlari	3 012,8	6 488,0	9 924,4	14 618,4
5.	Sud organlarini saqlash xarajatlari	297,2	672,2	1 003,6	1 295,4
6.	O'zini o'zi boshqarish organlarini saqlash xarajatlari	181,5	370,2	559,3	760,9
7.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shahar va tumanlar byudjetlarining zaxira jamg'armalari	301,3	708,0	1 157,0	1 720,4
8.	Davlat tomonidan NNT va fuqarolik jamiyatning boshqa inistitutlarini qo'llab-qo'vvatlash xarajatlari	63,3	140,6	232,4	326,8
9.	Davlat qarzarliga xizmat ko'rsatish va qoplash xarajatlari	1 213,6	3 280,2	5 268,3	8 220,6
11.	Boshqa xarajatlar	11 599,4	20 895,9	32 826,6	44 399,4

Xulosa qilib aytganda, Davlat byudjeti iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashning eng muhim moliyaviy vositasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 2023-yilgi byudjet tahlili shuni ko'rsatadiki, daromadlar va xarajatlar o'rtasida muvozanatni saqlash, byudjet taqchilligini kamaytirish va xarajatlarni samarali boshqarish dolzarb

³ <https://www.imv.uz/static/davlat-budjeti-xarajatlari-2023>

masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa infratuzilma sohalariga ajratilgan mablag'lar ijtimoiy rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Tavsiyalar:

1. **Soliq tizimini takomillashtirish:** Soliq tushumlarini oshirish uchun kichik va o'rta biznesni rag'batlantirish, noqonuniy iqtisodiy faoliyatni kamaytirish zarur.
2. **Xarajatlarning shaffofligini ta'minlash:** Davlat xarajatlarining samaradorligini oshirish uchun ularning shaffofligini kuchaytirish va jamoatchilik nazoratini kengaytirish lozim.
3. **Byudjet taqchilligini kamaytirish:** Davlat maqsadli jamg'armalari va konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligini qisqartirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash muhim.
4. **Infratuzilmani rivojlantirish:** Davlat byudjeti mablag'larini samarali yo'naltirish orqali transport va kommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish zarur.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, Davlat byudjeti daromadlari 2023 - <https://www.imv.uz/static/davlat-budjeti-daromadlari-2023>
2. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, Davlat byudjeti xarajatlari 2023 - <https://www.imv.uz/static/davlat-budjeti-xarajatlari-2023>
3. Transparency International, "Korrupsiya indeksi, 2023" – <https://www.transparency.org/en/cpi/2023/index/uzb>